



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohobov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIYA SAMARADORLIGINI O'LCHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY Tajribasi: AQSH MISOLIDA.....	246
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI	250
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
Sharipova Shahlo Istamovna	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	262
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
BANKLARDA YASHIL DEPOZITLAR TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT MOLIYA SIYOSATIDAGI O'RNI.....	267
Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZ QONIQISHINI OSHIRISH MEXANIZMLARI: QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA	278
Aqsungul Usenova Tenel qizi, Qoraqalpoq davlat universiteti	
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
O'ZBEKISTONDA QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	283
Azlarova Munira Muhammad-Amin qizi	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI SHAKLLANTIRISH, RIVOJLANTIRISH VA KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH.....	289
Bozorova Madina Raxmat qizi	
IMPROVING SERVICE QUALITY MONITORING IN SERVICE ENTERPRISES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	294
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	299
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	



O'ZBEKISTONDA QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	304
Abdusalomov Ozodbek Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	311
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI OSHIRISHDA AKT RIVOJLANISHINING O'RNI.....	315
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARI.....	322
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o'g'li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	326
Abdullo Sohibov SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH	331
Davronov Sanjar Ziyotovich SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	336
Ashrapova Noilaxon Niyazxanovna ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBASI TAHLILI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	340
Ochilov Baxtiyor Muminjonovich THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING.....	346
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin ugli SIRKULYAR IQTISODIYOTGA O'TISH: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	351
Astanakulov Olim Tashtemirovich Muxammad Id Balbaa (Muhammad Eid Balbaa) Habibe Elif Kutlugun (Habibe Elif Kutlugun) GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI FONIDA EKOLOGIK SIYOSAT VA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	357
Xamzayev Abdushukur Xudoyqulovich INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES FOR UZBEKISTAN'S TEXTILE INDUSTRY: CHALLENGES, OPPORTUNITIES, AND ECONOMETRIC EVIDENCE.....	362
Aziz Kurbanovich Abdullaev Sarvarbek Allayev Erkin ugli Shavkat Asrolovich Ruziev DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES	369
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich TEMIR YO'L TRANSPORTIDA SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI ("O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJ MISOLIDA).....	373
Barotov Baxtiyor Vaxobovich CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI	377
Muxitdinova Kamola Alisherovna TRANSPORT LOGISTIKASIDA TAVAKKALCHILIKLARNI SUG'URTALASH: O'ZBEKISTON VA AQSH TAJRIBASI ASOSIDA TAQQOSIY TAHLIL.....	381
Jabborov Islom Xusan o'g'li YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI BARQAROR BOSHQARISH.....	385
Xayrullayev Shaxram Yunus o'g'li	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI BARQAROR BOSHQARISH

Xayrullayev Shaxram Yunus o'g'li
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: Sh.khayrullaev@mail.ru
ORCID: 0009-0008-8516-5774

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini barqaror boshqarish masalalari tadqiq etilgan. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish bosqichida ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni uyg'unlashtirish xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini faoliyatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Tadqiqotda iqtisodiy salohiyat tushunchasining mazmuni yashil iqtisodiyot talablari nuqtayi nazaridan kengaytirilib, uning moddiy, moliyaviy, mehnat, innovatsion va ekologik tarkibiy qismlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarishning mavjud muammolari, xususan resurslardan samarasiz foydalanish, ekologik omillarni boshqaruvga yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi va yashil innovatsiyalarning sust joriy etilishi ilmiy jihatdan baholandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarish modeli ishlab chiqilib, unda resurs tejamkorligi, ekologik mas'uliyat, raqamli texnologiyalar va strategik samaradorlikning o'zaro bog'liqligi asoslab berildi. Mazkur yondashuv xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish korxonalarini, iqtisodiy salohiyat, barqaror boshqaruv, resurs tejamkorligi, yashil innovatsiyalar, ekologik samaradorlik, raqobatbardoshlik, strategik boshqaruv, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы устойчивого управления экономическим потенциалом предприятий сферы услуг в условиях зеленой экономики. На этапе современного экономического развития сочетание экологической устойчивости, рационального использования ресурсов и экономической эффективности становится важным направлением деятельности предприятий сферы услуг. В исследовании расширено содержание концепции экономического потенциала с точки зрения требований зеленой экономики, а также проведен системный анализ его материальных, финансовых, трудовых, инновационных и экологических составляющих. Также научно оценены существующие проблемы устойчивого управления экономическим потенциалом предприятий сферы услуг, в частности, неэффективное использование ресурсов, недостаточная интеграция экологических факторов в управление и медленное внедрение зеленых инноваций. По результатам исследования разработана модель устойчивого управления экономическим потенциалом, обосновывающая взаимосвязь ресурсоэффективности, экологической ответственности, цифровых технологий и стратегической эффективности. Такой подход способствует обеспечению экономической стабильности предприятий сферы услуг, снижению издержек, повышению качества услуг и укреплению конкурентоспособности.

Ключевые слова: зеленая экономика, предприятия сферы услуг, экономический потенциал, устойчивое управление, ресурсоэффективность, зеленые инновации, экологическая эффективность, конкурентоспособность, стратегическое управление, устойчивое развитие.

Annotation. This article examines the issues of sustainable management of the economic potential of service enterprises in the green economy. At the stage of modern economic development, the combination of environmental sustainability, rational use of resources and economic efficiency is becoming an important direction of the activities of service enterprises. In the study, the content of the concept of economic potential was expanded from the point of view of the requirements of the green economy, and its material, financial, labor, innovative and environmental components were analyzed based on a systematic approach. Also, the existing problems of sustainable management of economic potential in service enterprises, in particular, inefficient use of resources, insufficient integration of environmental factors into management, and the slow implementation of green innovations, were scientifically assessed. According to the results of the research, a model of sustainable management of economic potential was developed, which substantiates the interrelationship of resource efficiency, environmental responsibility, digital technologies and strategic efficiency. This approach serves to ensure economic stability in service enterprises, reduce costs, improve the quality of services and strengthen competitiveness.

Keywords: green economy, service enterprises, economic potential, sustainable management, resource efficiency, green innovations, environmental efficiency, competitiveness, strategic management, sustainable development.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillarining ustuvor ahamiyat kasb etishi, ekologik muammolarning kuchayishi hamda resurslardan oqilona foydalanish zaruratining ortib borishi yashil iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va amaliyotga faol joriy etilishiga olib keldi. Mazkur konsepsiya iqtisodiy o'sishni atrof-muhit muhofazasi, energiya tejamkorligi va ijtimoiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari faoliyatida iqtisodiy salohiyatni boshqarish masalasi endilikda faqat iqtisodiy natijadorlik bilan emas, balki ekologik va ijtimoiy samaradorlik bilan ham bog'liq holda ko'rib chiqilishi lozim.

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlikni ta'minlashdagi roli va aholi turmush sifatiga ta'siri yil sayin ortib bormoqda. Biroq ushbu sohaning jadal kengayishi resurslardan foydalanish hajmining oshishi, energiya sarfining ko'payishi, chiqindilar hosil bo'lishi va ekologik yuklamaning kuchayishi kabi holatlarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, transport, turizm, savdo, umumiy ovqatlanish, logistika va maishiy xizmatlar kabi yo'nalishlarda barqaror boshqaruv tamoyillarini joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Iqtisodiy salohiyat korxonaning mavjud resurslari, imkoniyatlari va kelajakdagi rivojlanish zaxiralarini ifodalovchi murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida talqin etiladi. Uning tarkibiga moddiy-texnik baza, moliyaviy resurslar, inson kapitali, innovatsion imkoniyatlar, boshqaruv salohiyati va axborot resurslari kiradi. Yashil iqtisodiyot sharoitida esa ushbu tarkib ekologik omillar bilan boyiydi, ya'ni iqtisodiy salohiyatni baholash va boshqarishda energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik, resurs tejamkorligi, chiqindilarni kamaytirish va yashil innovatsiyalarni joriy etish darajasi ham muhim ko'rsatkichga aylanadi. Demak, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarish resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga ekologik mas'uliyatni ham ta'minlashni talab etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish hali ham asosan an'anaviy yondashuvlarga tayanadi. Bunda iqtisodiy natijadorlikka ustuvor e'tibor qaratilib, ekologik va ijtimoiy omillar yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada resurslardan foydalanishda samarasizlik, energiya sarfining yuqoriligi, operatsion xarajatlarning ortishi va barqaror rivojlanish imkoniyatlarining cheklanishi kuzatiladi. Shu bois iqtisodiy salohiyatni boshqarishning yashil iqtisodiyot talablari bilan uyg'unlashgan yangi yondashuvlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini yoritish, uning tarkibiy elementlarini tahlil qilish va takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy salohiyatni boshqarish masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda tobora dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Xususan, barqaror rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq tadqiqotlar iqtisodiy tizimlarning yangi rivojlanish modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy salohiyat tushunchasi dastlab korxonaning resurslar majmui sifatida talqin qilingan bo'lsa, keyinchalik u strategik rivojlanish imkoniyatlarini ifodalovchi kompleks kategoriya sifatida rivojlandi. Bu borada Edith Penrose tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko'ra, korxonaning o'sishi va rivojlanishi uning ichki resurslaridan foydalanish samaradorligiga bog'liqdir. Ushbu yondashuv iqtisodiy salohiyatni boshqarishda resurslarning sifati va ularni boshqarish darajasining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi.

Keyinchalik Jay Barney tomonidan rivojlantirilgan resurslarga asoslangan nazariya iqtisodiy salohiyatni raqobat ustunligining asosiy manbai sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, korxonaning noyob va takrorlanmas resurslari uning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Mazkur nazariya xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarishda inson kapitali, bilimlar va innovatsion imkoniyatlarning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi esa iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zaruratidan kelib chiqqan holda shakllangan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy faoliyatni tashkil etishda resurs tejamkorligi, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Yashil iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik endilikda faqat moliyaviy natijalar bilan emas, balki ekologik va ijtimoiy samaradorlik bilan ham baholanishi lozim.

Xizmat ko'rsatish sohasida barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohada ekologik omillarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, xizmat ko'rsatish jarayonlarida energiya sarfi, transport xarajatlari, chiqindilar hajmi va resurslardan foydalanish darajasi korxonalarining iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarishda ekologik omillarni hisobga olish zarurati yuzaga kelmoqda.



Innovatsion rivojlanish nazariyasida esa Joseph Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida asoslab, ularning iqtisodiy tizimni sifat jihatdan yangilashdagi rolini ko'rsatib beradi. Mazkur yondashuv yashil iqtisodiyot sharoitida "yashil innovatsiyalar" tushunchasining shakllanishiga asos bo'ldi. Yashil innovatsiyalar energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni tashkil etish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari esa iqtisodiy salohiyatni boshqarish tizimiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va raqamli platformalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga ekologik samaradorlikni ta'minlashga ham xizmat qilishi ta'kidlanadi. Bu esa iqtisodiy salohiyatni boshqarishda raqamli va yashil yondashuvlarning integratsiyasini taqozo etadi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish masalalari alohida yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, uni yashil iqtisodiyot talablari asosida kompleks boshqarish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, iqtisodiy salohiyatning ekologik komponentlari, resurs tejamkorlik ko'rsatkichlari va yashil boshqaruv mexanizmlarini integratsiyalashgan holda o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarli emas.

Ayniqsa, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarishning zamonaviy modeli, unda raqamli texnologiyalar, yashil innovatsiyalar va strategik boshqaruv yondashuvlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash masalalari hali to'liq ochib berilmagan. Bu esa mazkur mavzuning ilmiy yangiligi va dolzarbligini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror boshqarish masalalari tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy salohiyat, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot va strategik boshqaruvga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash usuli, tizimli tahlil, iqtisodiy-mantiqiy umumlashtirish hamda analitik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyati moddiy, moliyaviy, mehnat, innovatsion va ekologik tarkibiy qismlar kesimida baholandi. Shuningdek, resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik mas'uliyat va barqaror boshqaruv omillari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarishning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqilib, uning iqtisodiy samaradorlik, ekologik natijadorlik va raqobatbardoshlikka ta'siri bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish masalasi an'anaviy iqtisodiy yondashuvlardan farqli ravishda resurslardan foydalanish samaradorligi, ekologik mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Zamonaviy bosqichda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng faol rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, uning kengayishi nafaqat iqtisodiy natijalarga, balki energiya sarfi, resurslardan foydalanish darajasi, chiqindilar hajmi va ekologik yuklamaga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli mazkur sohada iqtisodiy salohiyatni boshqarish tizimini yashil iqtisodiyot talablari bilan uyg'unlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyati endilikda faqat moddiy va moliyaviy resurslar bilan belgilanmaydi. Ushbu salohiyatning tarkibida inson kapitali, innovatsion imkoniyatlar, axborot resurslari, energiya samaradorligi va ekologik boshqaruv elementlari ham muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy salohiyatni boshqarish resurslardan foydalanish hajmini emas, balki ularning sifati, tejamkorligi va ekologik natijadorligini baholashga yo'naltirilishi lozim. Bu esa xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Amaliy jihatdan kuzatiladiki, ko'plab xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish jarayonida ekologik omillar yetarli darajada integratsiyalashmagan. Natijada energiya sarfining yuqori bo'lishi, resurslardan samarasiz foydalanish, operatsion xarajatlarning ortishi va chiqindilar hajmining ko'payishi kabi muammolar yuzaga keladi. Bunday holat korxonalarining nafaqat ekologik, balki iqtisodiy natijadorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki barqaror boshqaruvning yetishmasligi xarajatlarning ko'payishiga, xizmatlar tan-narxining ortishiga va bozordagi raqobatbardoshlikning pasayishiga olib keladi.

Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarishga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tizimli ravishda quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin.

**1-jadval****Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarishga ta'sir etuvchi asosiy omillar**

Omillar	Mazmuni	Boshqaruvga ta'siri	Kutilayotgan natija
Moddiy resurslar	Asosiy vositalar, infratuzilma, texnik baza	Xizmat ko'rsatish quvvati va jarayonlarini belgilaydi	Operatsion samaradorlik oshadi
Moliyaviy resurslar	Investitsiyalar, aylanma mablag'lar, moliyaviy barqarorlik	Yashil texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi	Moliyaviy barqarorlik kuchayadi
Inson kapitali	Bilim, malaka, ekologik madaniyat, kompetensiyalar	Barqaror boshqaruv sifatini belgilaydi	Mehnat unumdorligi va xizmat sifati oshadi
Innovatsion resurslar	Yashil innovatsiyalar, ekologik texnologiyalar	Resurs tejamkor boshqaruvni kuchaytiradi	Xarajatlar kamayadi
Axborot resurslari	Monitoring, tahlil, raqamli ma'lumotlar bazasi	Qarorlar aniqligi va tezkorligini oshiradi	Strategik boshqaruv kuchayadi
Ekologik omillar	Energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish, ekologik xavfsizlik	Salohiyatni barqaror boshqarishni ta'minlaydi	Ekologik va iqtisodiy samaradorlik uyg'unlashadi

1-jadval ma'lumotlari xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish ko'p omilli va integratsiyalashgan tizim ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot sharoitida ekologik omillar iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yerda moddiy va moliyaviy resurslar korxonaning operatsion imkoniyatlarini belgilasa, inson kapitali va innovatsion resurslar ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish sifatini ta'minlaydi. Axborot resurslari esa boshqaruv qarorlarini aniq va tezkor qabul qilish imkonini yaratadi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ekologik omillar xizmat ko'rsatish korxonasining iqtisodiy salohiyatini boshqarishda yangi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Energiya samaradorligi, resurs tejamkorligi va chiqindilarni kamaytirish bilan bog'liq boshqaruv choralari korxonaning nafaqat ekologik barqarorligini, balki iqtisodiy samaradorligini ham oshiradi. Demak, yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy salohiyatni boshqarish faqat resurslarni safarbar etish emas, balki ularni ekologik va iqtisodiy jihatdan optimal tarzda boshqarishni anglatadi.

Tahlil natijalari ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida an'anaviy boshqaruv yondashuvi bilan barqaror boshqaruv modeli o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Buni quyidagi taqqoslama jadval orqali yanada aniqroq ko'rsatish mumkin.

2-jadval**An'anaviy va barqaror boshqaruv sharoitida iqtisodiy salohiyatdan foydalanishning taqqoslama tavsifi**

Ko'rsatkichlar	An'anaviy boshqaruv	Barqaror boshqaruv	O'zgarish yo'nalishi
Resurslardan foydalanish	Intensiv, lekin samarasiz	Tejamkor va maqbullashtirilgan	Yaxshilanadi
Energiya sarfi	Yuqori	Nisbatan past	Kamayadi
Operatsion xarajatlar	Yuqori	O'rtacha yoki past	Pasayadi
Xizmat sifati	O'rtacha	Yuqori	Oshadi
Ekologik xavfsizlik	Yetarli emas	Yuqori	Kuchayadi
Mijozlar ishonchi	O'rtacha	Yuqori	Mustahkamlanadi
Raqobatbardoshlik	Qisqa muddatli	Barqaror va uzoq muddatli	Kuchayadi



Taqqoslama jadvaldan ko'rinib turibdiki, an'anaviy boshqaruv modelida asosiy e'tibor ko'proq joriy iqtisodiy natijalarga qaratiladi, biroq resurslardan foydalanish sifati va ekologik oqibatlar yetarli darajada hisobga olinmaydi. Natijada energiya sarfi yuqori bo'ladi, operatsion xarajatlar ortadi va uzoq muddatli raqobatbardoshlik zaiflashadi.

Barqaror boshqaruv modelida esa resurslardan foydalanish tejamkorlik, ekologik xavfsizlik va uzoq muddatli samaradorlik tamoyillari asosida tashkil etiladi. Bu modelda iqtisodiy salohiyat faqat foyda manbai sifatida emas, balki korxonaning barqaror rivojlanish zaxirasi sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish operatsion xarajatlarni kamaytirish bilan birga ekologik natijadorlikni ham ta'minlaydi. Bu esa xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun bozorda yangi raqobat ustunligini shakllantiradi.

Mazkur natijalarga tayangan holda xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarishning takomillashtirilgan modelini quyidagicha ifodalash mumkin. Mazkur model xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarishning yashil iqtisodiyot sharoitidagi yangi mantiqiy tuzilishini ifodalaydi. Modelning birinchi bosqichida korxonaning resurslar bazasi shakllanadi. Bu yerda iqtisodiy salohiyatning an'anaviy tarkibiy qismlari bilan birga innovatsion va axborot resurslari ham alohida o'rin tutadi.

Ikkinchi bosqichda ushbu resurslar yashil boshqaruv vositalari orqali boshqaruv tizimiga integratsiya qilinadi. Modelning uchinchi bosqichida boshqaruv jarayonlari an'anaviy nazorat va rejalashtirish bilan cheklanmay, ekologik integratsiya va optimallashtirish bilan boyitiladi. Natijada iqtisodiy salohiyatdan foydalanish barqaror xarakter kasb etadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik natijadorlikni ham ta'minlaydi.

Modelning yakuniy bosqichida esa barqaror raqobatbardoshlik shakllanadi. Demak, iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarish korxonaning uzoq muddatli bozor ustunligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.



1-rasm. Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini barqaror boshqarish modeli



Tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarishni takomillashtirish uchun, birinchi navbatda, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik monitoring tizimlarini yaratish va yashil innovatsiyalarni faol qo'llash zarur. Shu bilan birga, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy va ekologik mezonlarni birgalikda baholash amaliyoti yo'lga qo'yilishi lozim.

Umuman olganda, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarishning samarali modeli an'anaviy iqtisodiy natijadorlikni ekologik barqarorlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga asoslanishi kerak. Aynan shu yondashuv korxonalarining ichki imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmat sifatini oshirish va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini boshqarish masalasi an'anaviy boshqaruv yondashuvlaridan farqli ravishda iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligida ko'rib chiqilishi lozim. Zamonaviy sharoitda xizmat ko'rsatish korxonalarining barqaror rivojlanishi nafaqat moddiy va moliyaviy resurslar hajmi, balki ulardan oqilona foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va boshqaruv jarayonlariga yashil yondashuvlarni integratsiya qilish darajasi bilan ham belgilanadi.

Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyati ko'p komponentli tizim ekanligini tasdiqladi. Uning tarkibida moddiy, moliyaviy, mehnat, innovatsion va axborot resurslari bilan bir qatorda ekologik omillar ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy salohiyatni boshqarish jarayonida resurs tejamkorligi, energiya samaradorligi, chiqindilarni kamaytirish va yashil innovatsiyalarni joriy etish korxonalarining samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida an'anaviy boshqaruv modeli ko'proq qisqa muddatli iqtisodiy natijalarga yo'naltirilgan bo'lib, ekologik mezonlarni yetarli darajada hisobga olmaydi. Barqaror boshqaruv modeli esa iqtisodiy va ekologik samaradorlikni bir vaqtda ta'minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bunday yondashuv operatsion xarajatlarni kamaytirish, energiya sarfini qisqartirish, xizmat sifatini oshirish va korxonaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi.

Maqolada taklif etilgan iqtisodiy salohiyatni barqaror boshqarish modeli xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslar bazasi, yashil boshqaruv vositalari, boshqaruv jarayonlari va strategik natijalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Ushbu model asosida iqtisodiy salohiyatdan foydalanishning samarali shakli nafaqat moliyaviy natijadorlikni, balki ekologik barqarorlikni ham ta'minlashi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror boshqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va bozordagi barqaror ustunlikni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda raqamli texnologiyalar, yashil innovatsiyalar va strategik boshqaruv yondashuvlarini yanada chuqur integratsiya qilish xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/4539502>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Jay Barney. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. *Journal of Management*, 17(1), 99–120.
4. Erik Brynjolfsson, & Andrew McAfee. (2014). *The second machine age: Work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies*. New York: W. W. Norton & Company.
5. Thomas H. Davenport, & Rajeev Ronanki. (2018). Artificial intelligence for the real world. *Harvard Business Review*, 96(1), 108–116.
6. Michael E. Porter. (1985). *Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance*. New York: Free Press.
7. Edith Penrose. (1959). *The theory of the growth of the firm*. Oxford: Oxford University Press.
8. Joseph Schumpeter. (1934). *The theory of economic development*. Cambridge: Harvard University Press.
9. Robert M. Solow. (1956). A contribution to the theory of economic growth. *The Quarterly Journal of Economics*, 70(1), 65–94.



10. Paul M. Romer. (1990). Endogenous technological change. *Journal of Political Economy*, 98(5), S71–S102.
11. Gregory Vial. (2019). Understanding digital transformation: A review and a research agenda. *The Journal of Strategic Information Systems*, 28(2), 118–144.
12. Peter C. Verhoef, Broekhuizen, T., Bart, Y., et al. (2021). Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda. *Journal of Business Research*, 122, 889–901.
13. David J. Teece. (2007). Explicating dynamic capabilities. *Strategic Management Journal*, 28(13), 1319–1350.
14. Satish Nambisan, Lyytinen, K., Majchrzak, A., & Song, M. (2017). Digital innovation management. *MIS Quarterly*, 41(1), 223–238.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>